

## Raqamli Transformatsiya Davrida Inson Huquqlari: Yunesco Yondashuvi Va O'zbekiston Tajribasi

*Mahmudov Hasan Sharof o'g'li<sup>1</sup>, Mamatqulov Muhammadjon Ahmat o'g'li<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonining inson huquqlariga ta'siri YUNESCO tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt etikasi bo'yicha xalqaro me'yorlar asosida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektning davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi o'rni ortib borar ekan, shaffoflik, adolat, diskriminatsiyadan himoya, ma'lumotlar xavfsizligi kabi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar hamda milliy siyosatning YUNESKO standartlari bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Yunesco, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt (SI), Big data, diskriminatsiya, platforma, etika.

Raqamli transformatsiya bugungi globallashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ta'lim, xavfsizlik va ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI), katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli xizmatlar va avtomatlashtirilgan algoritmik tizimlar inson faoliyatining samaradorligini oshirayotgan bo'lsa-da, ular bilan birga yangi huquqiy, me'yoriy va ijtimoiy chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro hamjamiyat kun tartibining markaziy mavzularidan biri sifatida shakllanib bormoqda. YUNESCO tomonidan 2021-yilda qabul qilingan "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence"<sup>1</sup> hujjati SI texnologiyalaridan foydalanishda inson qadr-qimmati, adolat, shaffoflik, xavfsizlik va javobgarlik tamoyillarining ustuvorligini belgilab berdi. Ushbu hujjat global miqyosda SI axloqiy me'yorlarini birinchi bor majburiy bo'lmagan, ammo universal tarzda shakllangan standart sifatida ishlab chiqildi.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda raqamli islohotlarni jadallashtirib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli siyosatni amalga oshirmoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish va ijro intizomini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgiladi.<sup>2</sup> Strategiya raqamli iqtisodiyotning huquqiy asoslarini yaratish bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilish ko'lamini kengaytirishni ham nazarda tutadi.

### YUNESCO ning raqamli transformatsiya va inson huquqlariga doir yondashuvi

Raqamli transformatsiya jarayonida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha YUNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Sun'iy intellektning axloqiy-me'yoriy tamoyillari to'g'risidagi" tavsiyaviy hujjati dunyo miqyosida qabul qilingan birinchi global hujjatlardan biri bo'ldi. Ushbu tavsiyaviy hujjat SI texnologiyalaridan foydalanishda inson qadr-qimmati, adolat, xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlashga

<sup>1</sup> Sh.Rashidov nomidagi SamDU Yuridik fakulteti "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi magistranti mahmudovhasan448@gmail.com

<sup>2</sup> Sh.Rashidov nomidagi SamDU Yuridik fakulteti "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi magistranti muhammadjonmamatqulov92@gmail.com



qaratilgan universal yondashuvni taklif etadi. Hujjatning asosiy maqsadi- texnologik taraqqiyot inson huquqlariga zarar yetkazmasligi, aksincha, ularning kengroq kafolatlanishiga xizmat qilishdir.

Tavsiyada shaffoflik va javobgarlik prinsiplari alohida ta'kidlanib, SI tizimlarining ishlash jarayoni, algoritmlarning mantiqiy tuzilishi, ma'lumotlar manbasi va qaror qabul qilish mexanizmlarining tushunarli bo'lishi zarurligi qayd etiladi. Bu esa texnologiyalar ustidan samarali nazoratni ta'minlash, insonlarga o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini berish va noto'g'ri algoritmik qarorlar yuzaga kelganda javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilashga xizmat qiladi. YUNESCO shuningdek, SI tizimlarining adolatli bo'lishini, ya'ni algoritmik diskriminatsiya xavflari minimallashtirilishini va texnologik xizmatlarning jamiyatning barcha qatlamlariga teng taqdim etilishini talab qiladi. Bu borada ta'kidlanadiki, ma'lumotlarning noto'g'ri yoki tarafli to'planishi insonlar o'rtasida nomutanosiblik va adolatsizlikni kuchaytirishi mumkin, shuning uchun ma'lumotlar sifatida tekshirish va teng imkoniyatlarni ta'minlash davlatlar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Raqamli davrda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash ham YUNESCO yondashuvining asosiy yo'nalishidir. Hujjatda ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniyligi, ularning himoyalashning texnik va tashkiliy mexanizmlari, shuningdek, shaxsiy rozilikning ustuvorligi alohida belgilangan. Ma'lumotlar oqimining keskin kengayishi sharoitida davlatlar samarali kiberxavfsizlik tizimlarini yaratishi, ma'lumotlarni anonimlashtirish va ularning noqonuniy tarqalishining oldini olish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rilishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi.

YUNESCO tavsiyalarining davlatlar uchun ahamiyati shundaki, ular raqamli texnologiyalarni joriy etishda barqaror, insonparvar va huquqiy jihatdan muvozanatli siyosatni shakllantirishga yordam beradi. Hujjat majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, ko'plab davlatlar tomonidan milliy strategiyalar va normativ-huquqiy siyosatni ishlab chiqishda asosiy yo'nalish sifatida qabul qilingan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda sun'iy intellekt faoliyatini tartibga solishga doir yangi qonunchilik tashabbuslari YUNESCO ilgari surgan tamoyillar bilan sezilarli uyg'unlikka ega. Xususan, shaffoflik, ma'lumotlar xavfsizligi, texnologik javobgarlik va inson manfaatlarini ustuvor qo'yishga qaratilgan yondashuvlar O'zbekistonda ham raqamli islohotlarning asosiy yo'nalishiga aylangan.

O'zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonida inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha milliy siyosati

O'zbekistonning so'nggi yillarda raqamli transformatsiyani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, texnologik rivojlanish bilan birga inson huquqlarining samarali himoyasini ta'minlashga qaratilgan kompleks islohotlarni amalga oshirmoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish va ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha uzoq muddatli dastur sifatida e'tirof etiladi. Strategiya mazmunida inson huquqlarining ustuvorligi alohida qayd etilib, raqamli xizmatlar aholiga teng, ochiq va inson manfaatlariga qaratilgan shaklda taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi insonning ma'muriy jarayonlarda to'siqsiz, tezkor va shaffof xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. "my.gov.uz", "id.egov.uz", "Xalq qabulxonalari", "sud.uz", "mib.uz" va boshqa platformalarining takomillashtirilishi, electron identifikatsiya tizimlari va raqamli hujjat aylanishining joriy etilishi fuqarolarning davlat organlari bilan munosabatlarida qulaylik yaratgan bo'lsa, ularning huquqlarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlarni sezilarli kamaytirdi. Biroq raqamli davlat tizimining kengayishi bilan bir qatorda, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashning qonuniyligi va ularning himoya darajasi ham davlatning asosiy mas'uliyatlaridan biriga aylandi. Shu maqsadda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi Qonunning amaliy qo'llanishi kuchaytirildi, ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish, ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniy asoslari va fuqarolarning o'z ma'lumotlari ustidan nazorat huquqlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha mexanizmlar ishlab chiqildi.



Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ham davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni to'liq raqamlashtirish, AKT infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli xizmatlar ulushini sezilarli darajada oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur siyosiy yo'nalish parlament va siyosiy partiyalar faoliyatida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o'zining dasturlarida "raqamli va axborot jamiyatiga ega mamlakat" g'oyasini ilgari surib, "aqlli shahar", "xavfsiz shahar", "internet buyumlari", kabi texnologiyalarni keng joriy etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot ulushini oshirish, YaIM ning 30% o'sishini ta'minlash asosiy vazifa sifatida belgilagan.<sup>3</sup> Ushbu yondashuv mamlakatning xalqaro indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda raqobatbardosh iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt sohasida ham normativ-huquqiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. 2025-yil 1-noyabrda Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan, SI faoliyatini tartibga solishga qaratilgan yangi qonunchilik tashabbusi texnologiyalar ustidan shaffoflik va javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim qadam sifatida baholanmoqda. Qonunda SI yordamida yaratilgan materiallarni maxsus belgi bilan ajratish sharti, bu haqda ma'lumotni yashirish uchun javobgarlik belgilanishi hamda huquqbuzarlik sodir etilgan qurilmalarni musodara qilish kabi normalar nazarda tutilgan. Ushbu tartib SI faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, firibgarlikning oldini olish va axborot makonida ishonchlilikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, xalqaro tamoyillarga, xususan YUNESCO ning shaffoflik va javobgarlik haqidagi talablariga mos keladi.

O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida ham algoritmik shaffoflik muhim tamoyil sifatida ko'riladi. I.A. Filipovanning "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish"<sup>4</sup> nomli qo'llanmasida algoritmik qarorlarning inson tomonidan tushunilmasligi, qaror mantiqining yashirinligi sun'iy intellektning asosiy xavflaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Bizningcha ushbu fikr shuni nazarda tutadiki, SI tizimi katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zi o'rganadi, tasniflaydi, ulardan xulosalar chiqaradi. Biroq u bu xulosaga qanday kelgani ko'pincha ham aniq ko'rinmaydi. Natijada SI qarori tushuntirilmagan, izohlanmagan yoki inson tomonidan qayta tekshirib bo'lmaydigan bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda Filipovanning fikri, YUNESCO ilagari surgan tamoyillarga mos va uyg'un tarzda ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston raqamli transformatsiya jarayonida texnologik tengsizlikni kamaytirish, aholining barcha qatlamlari – yoshlar, keksalar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va olis hududlarda yashovchilar uchun raqamli xizmatlardan teng foydalanish imkonini yaratish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat dasturi, "IT-Park", "One Million Uzbek Coders" kabi loyihalar zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu tashabbuslar raqamli tavofut (digital divide)ning kamayishiga, texnologik imkoniyatlar tengligi esa inson huquqlarining to'laonli ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa, O'zbekistonning raqamli transformatsiya siyosati YUNESCO tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bilan uyg'un ravishda shakllanib, texnologik islohotlarning markazida inson manfaatlarini, shaffoflik, ma'lumotlar xavfsizligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan yondashuv ustuvor o'rin egallamoqda. Mazkur siyosat mamlakatning global raqamli makon bilan uyg'un integrallashuvi, shu bilan birga inson huquqlarining zamonaviy talablari asosida himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston YUNESCO standartlari bilan uyg'un bo'lgan demokratik, xavfsiz va inson manfaatlarini himoya qiladigan raqamli ekotizim yaratish yo'lida izchil qadamlar tashlamoqda. Ushbu jarayonning barqaror rivoji esa huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish hamda fuqarolarning raqamli huquqlarini ustuvor darajda himoya qilish bilan uyg'un holda kechishi kerak.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni
2. Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyanoma, 2021. URL: <https://en.unesco.org/artificialintelligence/ethics> (kirish 10/12/2021).
3. I.A. FILIPOVA “Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish” ma'ruza kursi. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. Samarqand 2022 57-bet
4. <https://www.xs.uz/uz/post/raqamli-ozbekiston-2030-strategiyasini-amalga-oshirishdagi-vazifalar-muhokama-qilindi?>
5. [https://www.naavi.org/uploads\\_wp/2023/Recommendation%20on%20the%20Ethics%20of%20Artificial%20Intelligence%20-%20UNESCO%20Digital%20Library.pdf?](https://www.naavi.org/uploads_wp/2023/Recommendation%20on%20the%20Ethics%20of%20Artificial%20Intelligence%20-%20UNESCO%20Digital%20Library.pdf?)
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/16/usaid-digital-uzbekistan-2030/>

